
Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi qo’lyozmalari katalogining yangi nashri chop qilindi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi O’zbekiston shoir va yozuvchilarining boy qo’lyozma merosi saqlanadigan fondlariga ega respublikaning yirik ilmiy-tadqiqot va ma’rifat markazi hisoblanadi. Muzey o’zining matnshunoslik va manbashunoslik sohasidagi ilmiy salohiyati bilan mamlakatimizda yetakchi ilmiy muassasa sifatida ma’lum.

Shu kunga qadar muzey olimlarining sa’yi-harakati bilan muzey fondi 2000 ga yaqin qo’lyozma va toshbosma kitoblar bilan boyidi. Ular orasida Sa’diy Sheroziyning 1636-yili ko’chirilgan kulliyoti, Abdurahmon Jomiyning “Tuhfatul ahror” qo’lyozmasining 1578-yili ko’chirilgan nusxasi, Nizomiy Ganjaviyning XVI asrga oid “Maxzan ul-asror”i, Xusrav Dehlaviyning 1575-yilda ko’chirilgan “Xamsa”si, Fig’oniy, Nozim Hiraviy, Abdullo Hotifiy, Husayn al-Koshifiy, Temurshoh Afg’oniy va boshqa shoir va yozuvchilari qo’lyozma asarlarining qadimiy nusxalari alohida ajralib turadi.

Qo’lyozma va toshbosma asarlar orasida salmog’i jihatidan tabiiyki, Hazrat Navoiy asarlari nusxalari yetakchilik qiladi. Muzey fondida saqlanayotgan “Badoe’ ul-bidoya” asarining nodir qo’lyozma nusxasi Navoiy barhayot paytida ko’chirilgan. Xattot Ali ibn Nur bu devonni hijriy 891-yil, milodiy 1486-yil Hirotda yozib tugatgan. U “Badoe’ ul-bidoya” qo’lyozmalari orasida eng to’liq nusxasidir. Bu qo’lyozma Hirotdagi qadimiy kitobat va xattotlik san’atining yorqin namunasidir.

So’nggi yillarda bir guruh olimlarimiz tomonidan muzey fondida saqlanayotgan qo’lyozma va toshbosma asarlarning kataloglari o’zbek, rus va ingliz tillarida nashrga tayyorlandi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi.



Shu kunlarda muzey qo’lyozmalari katalogining yangi nashri chop qilindi. Ushbu nashr muzey fondida saqlanayotgan barcha qo’lyozmalarni qamrab olgan. Katalogdan fondda saqlanayotgan 800 dan ortiq qo’lyozma kitob tarkibidagi 1618 ta asarning ilmiy tavsifi o’rin olgan. Arabiy, forsiy, turkiy tildagi asarlar asosan adabiyot, tarix, islom falsafasi, fiqh ilmi, mantiq ilmi, tilshunoslik, tibbiyot va boshqa sohalarga taalluqli.

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanib kelayotgan va ushbu katalogga kiritilgan qo’lyozmalar tavsifi boy qo’lyozma merosimiz bilan qiziquvchi ilm toliblari, mutaxassis va olimlar uchun foydali manba sifatida xizmat qiladi, degan umiddamiz.